

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING INTELEKTUAL VA IJODIY QOBILYATLARINI SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Ro‘zmatova Gulsora Qilichboy qizi
Qo‘qon Davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari va ularning samaradorligi hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ishlarining mazmuni, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida bolalarni ijodiy va intellektual qobiliyatlarini samarali rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim tashkiloti, pedagog, intellektual qobiliyat, ijodiy qobiliyat, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, integratsiya,

Аннотация: В данной статье рассматриваются технологии обучения, ориентированные на личность, и их эффективность, а также содержание работы по развитию интеллектуальных и творческих способностей детей в дошкольных образовательных учреждениях. Также обсуждаются эффективные способы развития творческих и интеллектуальных способностей детей на основе лично-ориентированных технологий.

Ключевые слова: учреждение дошкольного образования, педагог, интеллектуальные способности, творческие способности, образование, ориентированное на личность, современные технологии, инновационные технологии, интеграция.

Abstract: This article discusses personalized educational technologies and their effectiveness, as well as the content of activities aimed at developing intellectual and creative abilities of children in preschool educational institutions. It also explores effective ways to develop children's creative and intellectual abilities based on personalized technologies.

Key words: preschool education organization, pedagogue, intellectual ability, creative ability, learner-centered education, modern technologies, innovative technologies, integration.

Kirish. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyotida muhim o‘rin egallagan yondashuv bo‘lib, ta’limiy faoliyatni tashkil etishda har bir tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlari va imkoniyatlarini inobatga olishni nazarda tutadi. Bu texnologiya pedagogik faoliyatda tarbiyachining faolligi, mustaqilligi, ijodiy

salohiyati, fikr yuritish qobiliyati va o‘zini anglash jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashga asoslanadi. Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” da aytilishicha, maktabgacha ta’lim tashkilotini modernizatsiya qilish maktabgacha ta’limning yangi sifatiga erishishini anglatadi: “...maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, ma’naviy-axloqiy, estetik va jismoniy shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratish” yo‘nalishlari belgilangan.¹

Taniqli o‘zbek pedagogi B.G‘. Ziyomuhammadov “Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya - bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, shaxsning oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayoniga tizim sifatida qarab, uni tashkil etuvchilar, ya’ni tarbiyachi (pedagog)ning o‘qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma’lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko‘rsatgan ta’sirini va ta’lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta’limiy tadbir”² deb ta’kitlaydi.

Hozirgi kunda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda o‘rganilmoqda, o‘zlashtirilmoqda va o‘ziga xos darajada qo‘llanilmoqda. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi fan, madaniyat va ma’rifat masalalari bo‘yicha BMT tarkibidagi nifuzli bo‘lim YUNESKO tomonidan ham tan olingan va shunday ta’rif berilgan: “Ta’lim texnologiyasi ta’lim modellarini optimallashtirish maqsadida inson va texnika resurslari hamda ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlash tizimidir”³. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasining mazmuni, avvalo, pedagogik munosabatlarning yangi sifat darajasida shakllanishiga asoslanadi. Mazkur texnologiyaning maqsadi – har bir bolaga individual yondashuv asosida rivojlanish imkoniyatlarini yaratish, ularning o‘ziga xos salohiyatini ochish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, muammoli vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qila olish layoqatini rivojlantirishdan iborat. Shu orqali tarbiyalanuvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga, o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil ravishda shakllantiruvchi shaxsga aylanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasining vazifalari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarni aniqlash, ijtimoiy-psixologik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, tarbiyalanuvchilarning o‘z fikrini erkin ifoda etishiga imkon yaratish, o‘rganish jarayonida o‘zini namoyon etish va o‘ziga

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son qarori “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” // <https://lex.uz/docs/4331345>

² Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. O‘tkir Tolipov, D.Ro‘ziyeva. 2009

³ Pedagogik texnologiya: Oliy o‘quv yurtlari uzun darslik, N.X. Avliqulov va b. Toshkent 2012

bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, har bir bola faoliyatida muvaffaqiyatga erishish hissini uyg‘otish. Shu bilan birga, bu texnologiya doirasida tarbiyachining pedagogik mahorati, noan‘anaviy yondashuvlarni qo‘llash layoqati, innovatsion metodlardan foydalanish darajasi ham muhim o‘rin tutadi.⁴ Zamonaviy ta‘lim tizimining rivojlanishi jamiyatda sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar, yangi bilimlar va texnologiyalarning jadal sur‘atlar bilan yangilanishi, shuningdek, inson omilining qadri yuksalib borayotganligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu jarayonda ta‘lim tizimining asosiy vazifasi tarbiyalanuvchining shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qilishdir. Shuning uchun ham pedagogik yondashuvlar orasida shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyasi muhim o‘rin egallaydi. Bu texnologiya tarbiyalanuvchining individual xususiyatlari, ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olgan holda, uning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rag‘batlantirishga qaratilgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra, rivojlantiruvchi ta‘lim konsepsiyasiga tayanadi. Bu yondashuvda bilim faqat maqsad emas, balki shaxsni rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi. Ya‘ni, tarbiyalanuvchi tomonidan o‘zlashtirilgan har qanday bilim uning tafakkur doirasini kengaytirishi, mustaqil fikrlashga undashi, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topa olishini ta‘minlashi kerak. Bu esa, o‘z navbatida, metodik yondashuvlarda o‘zgarish bo‘lishini, innovatsion metodlardan keng foydalanishni talab etadi.⁵

Ta‘lim muhitining shaxsga yo‘naltirilganligi o‘quv dasturlarining mazmunida ham aks etadi. An‘anaviy yondashuvda barcha tarbiyalanuvchilarga bir xil talab qo‘yilsa, shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan yondashuvda har bir bolaning individual imkoniyatlari, bilim darajasi, qiziqish doirasi hisobga olinadi. O‘quv dasturi moslashuvchan bo‘lib, tarbiyalanuvchilarning faol ishtirokini, o‘z fikrini bildirishini va o‘z mustaqil tanlovini amalga oshirishini ta‘minlaydi. Bu esa ta‘limning faollashtirilishiga, tarbiyalanuvchilarning ichki motivatsiyasining kuchayishiga olib keladi.

Shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan ta‘lim muhiti bolani passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu muhitda tarbiyalanuvchi tarbiyachi tomonidan berilgan tayyor bilimni egallash bilan cheklanmaydi, balki mustaqil izlanadi, muammoni hal qilishga harakat qiladi, qaror qabul qilishga o‘rganadi. Unga xatolardan qo‘rqmaslik, muammolarga ijobiy yondashish, muhokama qilish va bahslashish orqali o‘z fikrini asoslash imkoniyati beriladi. Bunday yondashuv nafaqat akademik bilimlarni chuqurlashtiradi, balki tarbiyalanuvchining shaxsiy sifatlarini ham rivojlantiradi.

⁴ Rasulova D. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim: nazariy asoslari va amaliy yo‘nalishlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022. – B. 44.

⁵ Karimova M. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2023. – B. 57.

Shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan muhitni yaratishda tarbiyachining kasbiy malakasi, metodik savodxonligi va psixologik tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi har bir tarbiyalanuvchini alohida shaxs sifatida qabul qilishi, uning qobiliyatlarini tan olishi, qo‘llab-quvvatlashi va rag‘batlantirishi zarur. Shuningdek, tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan muomala qilishda empatiya, sabr-toqat, e‘tibor, adolat va ijobiy munosabat asosida faoliyat yuritishi kerak.

Zamonaviy ta‘lim tizimida tarbiyalanuvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, intilishlari va qobiliyatlarini chuqur tahlil qilish hamda ular asosida ta‘lim jarayonini tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Har bir tarbiyalanuvchining o‘ziga xosligi, o‘rganish sur‘ati, bilish uslubi, ijtimoiy va emotsional holati, qiziqish doirasi farqli bo‘lishi sababli, ta‘lim metodlari ham moslashtirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan va moslashuvchan bo‘lishi zarur. Bu holat shaxsiylashtirilgan ta‘lim g‘oyasini amaliyotda amalga oshirishni talab qiladi.⁶

Maktabgacha yosh davri bolalikning eng muhim va mas‘uliyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda bolaning psixik rivojlanishi, tafakkur tizimi, tasavvuri, idroki va nutq faolligi jadal sur‘atlar bilan shakllanadi. Shu jihatdan maktabgacha yoshda bolaning intellektual va ijodiy salohiyatini shakllantirish zamonaviy ta‘lim nazariyasida ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Chunki aynan ushbu davrda asos solingan kognitiv va ijodiy qobiliyatlar keyingi bosqichlardagi shaxsiy rivojlanishning poydevorini tashkil qiladi.⁷ Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi doirasida intellektual va ijodiy salohiyatni rivojlantirishning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar alohida ta‘kidlanadi: bolaga ishonch bildirish, uning erkin tanlovini hurmat qilish, muvaffaqiyatga intilish hissini shakllantirish, shaxsiy qiziqishlarini rag‘batlantirish, hamkorlikda faoliyat yuritish, ijodiy muhit yaratish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishi ta‘lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bolaning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, unga o‘zini erkin ifoda etish uchun qulay sharoitlar yaratish ta‘lim-tarbiya tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Bu borada pedagogik sharoitlar va ta’sirchan vositalar muhim rol o‘ynaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda bolalarning mustaqil fikrlashiga imkon yaratish, turli savollar orqali ularda qiziqish uyg‘otish, ijodiy topshiriqlar orqali yangicha qarashlarni shakllantirish pedagogik faoliyatning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, pedagog tomonidan beriladigan topshiriqlar har bir bolaning intellektual darajasi va ijodiy salohiyatiga mos bo‘lishi kerak.

⁶ Usmonxo‘jaeva M. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – B. 57.

⁷ Haydarova Madina G‘ulom qizi. “Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish omillari.” // “Maktabgacha ta‘lim – Maktab – Oliy ta‘lim” konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar. Ilmiy-amaliy a

Ijodiy va intellektual salohiyatni rivojlantirish uchun birinchi navbatda rivojlantiruvchi muhit talab etiladi. Bunday muhit bolani mustaqil faoliyatga undaydi, unga tanlov imkoniyatini beradi, fikrlash va fantaziyasini kuchaytiradi, bilishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Rivojlantiruvchi muhit vositasida bola o‘zini erkin his qiladi, xatolardan qo‘rqmaydi, savol berishga va yangi g‘oyalarni ilgari surishga intiladi.

Xulosa: Xulosa qilganda bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limga asoslanib ishlayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar an’anaviy dastur bo‘yicha tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan ancha qobiliyatli bo‘ladilar. Chunki bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limda bolaga yaxlit shaxs sifatida qaraladi, unda tana, aql, hissiyot va ijodkorlik mujassamdir, shu bilan birga shaxsiy tarixi va ijtimoiy kelib chiqishi ham inobatga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 bet
4. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A‘zamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” Darslik “Tafakkur” –T.: 2019.
5. “6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o‘rganish”. Metodik qo‘llanma. K.Nizomova, T.: 2006.
6. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. T.: 2001.
7. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015 y. UzPFITI. Uslubiy qo‘llanma.
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, T.: 1993. – 84-bet.
9. Haydarova Shahlo Narzullayevna. Mehribonlik uyi bolalarinining ijtimoiy hayotga moslashuv omillari. “UZACADEMIA”SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. 30-dekabr, 2020-yil. 3-qism. 163-165
10. A.Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – B. 112.
11. A. Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”. T., “O‘qituvchi”. 1994